

**Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari hamda Universitet huzuridagi
Xalima Muhitdinova nomidagi akademik litsey o'quvchilariga Xalima
Muhitdinova nomidagi stipendiyani tayinlash to'g'risidagi nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) talabalari hamda Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Xalima Muhitdinova nomidagi akademik litsey (keyingi o'rinlarda – akademik litsey) o'quvchilariga Xalima Muhitdinova nomidagi stipendiyani (keyingi o'rinlarda – stipendiya) tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

2. Stipendiya taniqli huquqshunos, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi lavozimida samarali faoliyat yuritgan Xalima Muhitdinovaning hayoti va faoliyatini o'rganish hamda uning huquqshunoslik, davlat boshqaruvi va sud-huquq sohasidagi ibratli faoliyatini yoshlar orasida keng targ'ib etish, yoshlarning huquqshunoslik kasbiga qiziqishini oshirish, huquqiy tafakkuri va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, vatanparvarlik, mas'uliyat, adolat va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashish, shuningdek, huquqshunoslik sohasida yuqori salohiyatga ega iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida ta'sis etiladi.

3. Stipendiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

yoshlarning huquqshunoslik kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish;

huquqiy davlat va qonun ustuvorligi tamoyillariga sodiq yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

sud-huquq tizimi uchun yuqori malakali, vatanparvar va kasbiy jihatdan yetuk kadrlar tayyorlashga ko'maklashish;

yoshlarda huquqiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish va huquqiy muammolarga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirish;

yoshlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini rag'batlantirish;

Halima Muhitdinovanning hayoti, mehnat faoliyati va huquqshunoslik sohasidagi merosini o'rganish va targ'ib qilish;

yoshlarni Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati, adolat, qonuniylik va inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

4. Stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda Universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha tahsil oladigan 2–3-bosqich talabalari, akademik litseyning 1-bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan o'quvchilari ishtirok etishlari mumkin.

5. Stipendiya taqdim etish uchun har o'quv yilida universitet talabalariga ikkita, akademik litsey o'quvchilariga esa bitta kvota ajratiladi.

6. Davlat stipendiyalari, Prezident granti, shuningdek Universitet tomonidan ta'sis etilgan yoki Universitet faoliyati doirasida joriy etilgan stipendiya va grant sohiblari ushbu stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok eta olmaydi.

Bunda talabalar uchun "Adliya vazirligi" stipendiyasi va granti, "Toshkent davlat yuridik universiteti" stipendiyasi va granti, "G'afur G'ulom" stipendiyasi, "Xadicha Sulaymonova" stipendiyasi hamda "Yuridik klinika" stipendiyasi, akademik litsey o'quvchilari uchun esa "Toshkent davlat yuridik universiteti" stipendiyasi va granti, hamda "Xadicha Sulaymonova" stipendiyalari nazarda tutiladi.

7. Bir talaba yoki o'quvchi stipendiyani faqat bir marta qo'lga kiritishi mumkin (akademik litseyda o'qishi davomida stipendiyalarni qo'lga kiritgan o'quvchilar keyinchalik universitetda o'qishini davom ettirishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno).

8. Mazkur stipendiyani olish talaba yoki o'quvchining keyinchalik boshqa stipendiya va grantlar (Davlat stipendiyalari, Prezident granti, "Adliya vazirligi" stipendiyasi va granti) uchun o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etishiga hamda tegishli stipendiya yoki grantni olishiga to'sqinlik qilmaydi.

9. Stipendiyani tayinlash bilan bog'liq jarayonlarning ishchi organi universitetning Yoshlar masalalari va sportni ommalashtirish boshqarmasi bo'lib hisoblanadi.

2-bob. Stipendiya uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlarga qo'yiladigan talablar

10. Stipendiya uchun tanlovda ishtirok etuvchi nomzod quyidagi minimal talablarga javob berishi lozim:

oldingi o'quv yili (o'rganilayotgan davr)dagi o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rtacha 85 foizdan kam bo'lmasligi;

fanlardan akademik qarzдорligi mavjud bo'lmasligi;

ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidolari va odob-axloq talablariga rioya qilishi (o'qish davrida ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan intizomiy jazo chorasi qo'llanilmagan bo'lishi);

huquqshunoslik, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari hamda Xalima Muhitdinovanning hayoti va faoliyatiga oid ilmiy, ilmiy-ommabop maqola yoki tezis chop ettirganligi (bunda universitet talabalari huquqshunoslik yo'nalishida 3 ta va Xalima Muhitdinovanning hayoti va faoliyatiga oid 2 ta, akademik litsey o'quvchilari esa huquqiy yo'nalishda 1 ta va Xalima Muhitdinovanning hayoti va faoliyatiga oid 1 ta maqola yoki tezis chop ettirgan bo'lishi);

Xalima Muhitdinovanning hayot yo'li va faoliyatini yoshlar orasida (kamida 3 marotaba) keng targ'ib qilganligi (joylarda davra suhbatlari, uchrashuvlar, konferensiyalar tashkil etganligi, OAV orqali ommalashtirganligi).

Mazkur minimal talablarga javob bermaydigan nomzodlar tanlovning keyingi bosqichida ishtirok eta olmaydi.

3-bob. Tanlovni tashkil etish

11. Stipendiya ajratish uchun munosib nomzodlarni saralash ishlarini tashkil etish maqsadida Universitet rektorining buyrug'i bilan tanlov komissiyasi shakllantiriladi.

12. Tanlov komissiyasi tarkibiga Universitet rahbariyati, xodimlar, professor-o'qituvchilar, akademik litsey vakillari hamda zaruratga ko'ra tegishli soha vakillari kiritilishi mumkin.

13. Tanlov komissiyasiga Universitetning yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor rahbarlik qiladi.

14. Tanlov komissiyasi:

tanlovning barcha jarayonlarini va bosqichlarini tashkil etadi;

nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqadi;

tanlov bosqichlarini o'tkazadi;

baholash mezonlarini tasdiqlaydi;

tanlov bosqichlari bo'yicha topshiriqlarni shakllantirish uchun tegishli mutaxassislardan iborat ishchi guruh tarkibini tasdiqlaydi;

nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholaydi;

tanlov natijalarini umumlashtiradi;

stipendiya tayinlash bo'yicha Universitet rektoriga tavsiya kiritadi.

15. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar har yili 20-iyul sanasiga qadar elektron shaklda ariza topshiradilar hamda 10-bandda ko'rsatilgan minimal talablar asosida tegishli hujjatlarini ilova qiladilar.

4-bob. Tanlov o'tkazish tartibi

16. Stipendiya ajratish uchun tanlov uch bosqichda o'tkaziladi:

birinchi bosqich – dastlabki saralash;

ikkinchi bosqich – test sinovi;

uchinchi bosqich – huquqiy-analitik va motivatsion baholash.

Tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichlari Universitet binosida o'tkaziladi.

17. Birinchi bosqich – dastlabki saralash

Mazkur bosqichda nomzodlarning hujjatlari Tanlov komissiyasi tomonidan har yili 1-avgustga qadar Nizomning 10-bandida belgilangan minimal talablarga muvofiqligi o'rganiladi.

Dastlabki saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga tanlovning ikkinchi bosqichida ishtirok etish huquqi beriladi.

18. Ikkinchi bosqich – test sinovi

Mazkur bosqichda nomzodlarning Xalima Muhitdinovanning hayoti va faoliyati, huquqshunoslik, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi, inson huquqlari, sud-huquq tizimi, davlat va fuqarolik xizmati hamda huquqiy madaniyatga oid bilimlari test sinovi orqali aniqlanadi.

Test topshiriqlari Xalima Muhitdinovanning hayoti va faoliyati, shuningdek, Universitet talabalari uchun huquqning tegishli tarmoqlari va Universitetda o'rganiladigan fanlar majmui, akademik litsey o'quvchilari uchun esa huquqning umumiy asoslaridan kelib chiqib, Universitet talabalari va akademik litsey o'quvchilari uchun alohida shakllantiriladi.

Universitet talabalari uchun 50 ta, akademik litsey o'quvchilari uchun 25 ta test topshirig'i taqdim etiladi.

Har bir to'g'ri javob uchun Universitet talabalariga 2 ball, akademik litsey o'quvchilariga esa 4 ball beriladi. Bunda test sinovi bo'yicha maksimal natija har ikki toifadagi nomzodlar uchun 100 ballni tashkil etadi.

Test sinovi har yili 15-avgustga qadar Universitet binosida o'tkaziladi.

Tanlovda ishtirok etuvchi akademik litsey o'quvchilarining Universitetga kelishi akademik litseyning mas'ul xodimi hamrohligida tashkil etiladi.

Akademik litsey o'quvchilari va ularga hamrohlik qiluvchi mas'ul xodimlarning tanlovning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida ishtirok etishi bilan bog'liq safar xarajatlari akademik litsey mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Test sinovi yakunlariga ko'ra eng yuqori natija qayd etgan Universitetning 6 nafar talabasi hamda akademik litseyning 3 nafar o'quvchisi tanlovning uchinchi bosqichida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Test sinovi yakunlariga ko'ra keyingi bosqichga o'tish uchun belgilangan oxirgi o'rin bo'yicha ikki yoki undan ortiq nomzodning natijalari teng bo'lgan taqdirda, teng natija qayd etgan barcha nomzodlar tanlovning uchinchi bosqichida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Test sinovi natijalari faqat tanlovning uchinchi bosqichida ishtirok etuvchi nomzodlarni aniqlash uchun hisobga olinadi. Uchinchi bosqichda ishtirok etuvchi barcha nomzodlar teng sharoitlarda baholanadi.

19. Uchinchi bosqich – huquqiy-analitik va motivatsion baholash

Tanlovning uchinchi bosqichida tanlovning ikkinchi bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarning huquqiy fikrlashi, huquqiy muammolarni tahlil qilish va hal etish ko'nikmalari, kasbiy salohiyati, huquqshunoslik kasbiga bo'lgan qiziqishi, vatanparvarligi, fuqarolik mas'uliyati hamda kelgusidagi kasbiy maqsadlari baholanadi.

Uchinchi bosqich huquqiy-analitik topshiriq (keys) hamda motivatsion taqdimot va savol-javobdan iborat bo'ladi.

Uchinchi bosqich tanlovning ikkinchi bosqichi bilan ketma-ket ravishda Universitet binosida o'tkaziladi.

Huquqiy-analitik topshiriq (keys)

Bunda har bir nomzodga uning ta'lim bosqichiga mos ravishda huquqiy vaziyat, amaliy keys yoki huquqiy muammoli vaziyat taqdim etiladi.

Universitet talabalari uchun huquqiy-analitik topshiriqlar ularning ta'lim bosqichiga mos ravishda huquqning tegishli tarmoqlari hamda real sud-huquq amaliyotiga yaqin vaziyatlardan kelib chiqib, akademik litsey o'quvchilari uchun esa huquqning umumiy asoslari, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi, inson huquqlari hamda fuqarolik-huquqiy bilimlar asosida shakllantiriladi.

Nomzodga huquqiy-analitik topshiriqni bajarish uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Nomzod topshiriqqa yozma shaklda javob taqdim etadi.

Huquqiy-analitik topshiriq 70 ballik tizim asosida quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

huquqiy muammoni aniqlash – 10 ballgacha;

muammoni hal etishga taalluqli huquqiy normalarni to'g'ri qo'llay olishi – 15 ballgacha;

huquqiy tahlilni to'g'ri shakllantirishi va o'z pozitsiyasini asoslashi – 20 ballgacha;

muammoning huquqiy yechimini taklif qilishi – 15 ballgacha;

yakuniy xulosaning mantiqiyligi, izchilligi va asoslanganligi – 10 ballgacha.

Bunda nomzodning mustaqil fikrlashi, huquqiy dalillarni o‘zaro bog‘lay olishi va o‘z fikrini aniq bayon qilishi mazkur mezonlar doirasida inobatga olinadi.

Motivatsion taqdimot va savol-javob

Bunda nomzodning “Men kelajakda huquqshunos sifatida O‘zbekiston huquqiy tizimiga qanday hissa qo‘shmoqchiman?” mavzusidagi motivatsion chiqishi baholanadi.

Nomzodga motivatsion taqdimotni amalga oshirish uchun 5 daqiqagacha vaqt beriladi.

Taqdimot yakunida Tanlov komissiyasi a‘zolari tomonidan nomzodga uning kasbiy qiziqishi, huquqshunoslik sohasidagi qarashlari, kelgusidagi kasbiy maqsadlari hamda Vatan va jamiyatga xizmat qilishga tayyorligini aniqlashga qaratilgan 3 tagacha savol beriladi. Savol-javob uchun 5 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

Motivatsion taqdimot va savol-javob 30 ballik tizim asosida quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

huquqshunoslik kasbiga bo‘lgan qiziqishi va kasbiy motivatsiyasi – 10 ballgacha;

Vatan va jamiyatga xizmat qilishga tayyorligi, vatanparvarligi va fuqarolik mas‘uliyati – 10 ballgacha;

kelgusidagi kasbiy maqsadlarining aniqligi, izchilligi va asoslantirilganligi – 10 ballgacha.

Bunda nomzodning o‘z fikrini mustaqil, aniq, izchil va asoslangan holda bayon qilishi, berilgan savollarga mazmunli javob berishi hamda bildirgan fikrlarining tanlagan kasbiy yo‘nalishi bilan bog‘liqligi tegishli baholash mezonlari doirasida inobatga olinadi.

Uchinchi bosqich bo‘yicha nomzodning yakuniy natijasi huquqiy-analitik topshiriq hamda motivatsion taqdimot va savol-javob natijalari bo‘yicha to‘plangan ballarni qo‘shish orqali aniqlanadi. Uchinchi bosqich bo‘yicha maksimal natija 100 ballni tashkil etadi.

20. Test topshiriqlari, huquqiy-analitik topshiriqlar hamda motivatsion baholash doirasida beriladigan savollar Tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan, tegishli sohalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislardan iborat ishchi guruh tomonidan Universitet talabalari va akademik litsey o‘quvchilari uchun alohida ishlab chiqiladi.

Tanlov komissiyasi ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan test topshiriqlari, huquqiy-analitik topshiriqlar hamda motivatsion baholash savollarini tanlov o'tkazilishidan avval tasdiqlaydi.

5-bob. Tanlov natijalarini aniqlash va stipendiyani tayinlash

21. Tanlovning uchinchi bosqich yakunlariga ko'ra Universitet talabalari orasidan eng yuqori natija qayd etgan 2 nafar nomzod, akademik litsey o'quvchilari orasidan esa eng yuqori natija qayd etgan 1 nafar nomzod stipendiya sohibi deb topiladi.

22. Stipendiya sohiblarini aniqlashda yakuniy ballar teng bo'lgan taqdirda, teng ball to'plagan nomzodlarga Tanlov komissiyasi tomonidan qo'shimcha savollar beriladi. Qo'shimcha savollarga berilgan javoblar natijalariga ko'ra yuqori natija qayd etgan nomzod stipendiya sohibi deb topiladi.

23. Yakuniy natijalar tanlov komissiyasining yig'ilish bayoni bilan rasmiylashtiriladi.

24. Tanlov komissiyasining stipendiya tayinlash to'g'risidagi tavsiyasi universitet rektoriga taqdim etiladi. Universitet rektori tavsiya etilgan nomzodlarga stipendiya tayinlash yoki rad etish haqida yakuniy qaror qabul qiladi hamda rektor buyrug'i shaklida rasmiylashtiriladi.

25. Stipendiya tayinlash to'g'risidagi buyruq qabul qilingandan so'ng stipendiya sohiblari haqidagi ma'lumotlar Universitetning rasmiy axborot manbalari orqali e'lon qilinadi.

26. Stipendiya sohiblariga Universitet rektori tomonidan imzolangan tegishli guvohnoma tantanali ravishda topshiriladi.

6-bob. Stipendiyani to'lash tartibi

27. Stipendiya sohiblariga stipendiya miqdori keyingi o'quv yili davomida, sentabr oyidan iyun oyiga qadar har oyda to'lab boriladi.

28. Xalima Muhitdinova nomidagi stipendiyaning miqdori Universitet talabalari uchun – oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga belgilangan bazaviy stipendiyaning 1,5 baravari, akademik litsey o'quvchilari uchun – oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga belgilangan bazaviy stipendiya miqdorida belgilanadi.

29. Stipendiyani moliyalashtirish Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

30. Akademik litsey o'quvchisiga stipendiya to'lash Universitet va akademik litsey o'rtasida tuziladigan tegishli moliyaviy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

31. Stipendiya sohibi stipendiya tayinlangan davrda ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalari yoki odob-axloq talablarini qo'pol ravishda buzgan, shuningdek unga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan taqdirda stipendiyadan mahrum qilinishi mumkin.

32. Talaba yoki o'quvchi boshqa ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirganda, akademik ta'tilga chiqqanda, talabalar yoki o'quvchilar safidan chiqarilgan taqdirda stipendiya to'lovi tegishli davrdan boshlab to'xtatiladi.

33. Stipendiyadan mahrum qilish yoki uni to'xtatish masalasi stipendiya tayinlangan talaba bo'yicha tegishli fakultet dekani, akademik litsey o'quvchisi bo'yicha esa akademik litsey rahbariyatining asoslantirilgan taqdimnomasi asosida Universitet rektori tomonidan ko'rib chiqiladi.

34. Nomzodlar tanlov jarayoni yoki uning natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda Universitet rektoriga yozma yoki elektron shaklda murojaat qilishlari mumkin.

35. Tanlov davomida nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlarini yig'ish, saqlash va ulardan foydalanish qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

36. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rektorining tegishli buyrug'i bilan belgilangan tartibda kiritiladi.